

## MINTAQADA INNOVASION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION TIZIMNING ASOSIY XUSUSIYATLARI

**Bekmurodova Saodat Ikromovna**  
*mustaqil tadqiqotchi,*  
*Iqtisodiyot va pedagogika universiteti NTM*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda mintaqalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, hududlarni innovasion iqtisodiy rivojlantirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mintaqada innovasion iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirishda xorij tajribasi va uni mintaqada qo'llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mintaqada agrosanoatida hududlararo subklasterlash mexanizmlarini rivojlantirish yo'llari va istiqbollari, samaradorligini oshirish omillari, imkoniyatlari, tashkiliy-iqtisodiy, mexanizmlari hamda mintaqa innovasion iqtisodiy samaradorligini aniqlash va hisoblash uchun bu mintaqa agrosanoatida hududlararo aynan qanday omillar, qay darajada ta'sir etishini o'rganish zarurligi va bu omillarni turlicha guruhlash mumkin bo'lib, bu omillar aynan qaysisining samaradorligini aniqlanayotganligiga bog'liqligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** innovasion, innovatsion, raqobatbardosh, kooperatsiya, kontsentratsiyalash model, klasteri, eksport, agrosanoat, agroklastar, tendensiyalar.

### KIRISH

O'zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari turli tendensiyalarga ega. Mintaqalar iqtisodiyotini innovasion rivojlantirish tendensiyalari zamonaviy iqtisodiy model va texnologiyalarni joriy qilish orqali mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Innovasion tizimning asosiy vazifasi yangi texnologiyalar va bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirish, ya'ni ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilishdan iborat.

<b>INNOVASION TIZIM</b>	
Mintaqaviy innovasion tizim	Innovasion infratuzilma
<b>INNOVASION SIYOSAT</b>	
Innovasion siyosat	Innovasion jarayonlar
<b>Innovasion faoliyatning tashkiliy shakllari</b>	
Innovasion klasterlar	Raqamli transformasiya va Innovatsiyalar

#### I-rasm. Innovasion tizimning asosiy elementlarni

Innovasion tizim tushunchasi zamonaviy iqtisodiyot va jamiyatning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan konsepsiya bo'lib, u turli tashkilotlar va jarayonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tushuntiradi. Innovasion tizimning mohiyati shundaki, u bir-biriga bog'liq bo'lgan sub'ektlar va infratuzilma elementlarining birgalikdagi harakatlari orqali yangi bilim va texnologiyalarni yaratish, ularni joriy qilish va iqtisodiy hamda ijtimoiy manfaat olishga qaratilgan jarayonlarni tashkil etadi va quyidagilardan iborat «Innovatsiya»



tushunchasini tushunishga bo'lgan ikkinchi yondashuv ishlab chiqarishda muayyan turdagi texnika, texnologiya va boshqa yangi mahsulotlardan foydalanishga asoslanadi. Ushbu yondashuvga sodiq ayrim olimlar ishlab chiqarish faoliyatining Innovatsiyaviy va ilmiy-texnik jihatlarini teng deb biladi, ammo bu har doim ham to'g'ri emas. Ammo ushbu yondashuv yetarlicha keng tarqalgan, chunki uning asosida yotgan Innovatsiyalarni ilmiy-texnik nuqtai nazardan ajratish tamoyili, Innovatsiyalarning jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati va maqsadlarini aks ettiradi.

#### ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi global iqtisodiy tendentsiyalar va jahon jamiyati rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib turibdi ta'minlashning strategik istiqboli mamlakat hududlarida ijtimoiy rivojlanish barqaror bo'ladi. E'tibor bering, iqtisodiy klasterlash masalalari ko'rib chiqiladi davomida turli xorijiy va mahalliy mutaxassislar ko'p yillar davomida tadqiqot, ammo bu kontseptsiya bilan hali ko'p muammolar bor hozirgi kungacha o'rganilmagan. Kuznetsova N.V, (2016) [1,2]

Korporativ menejerlarga sanoat jarayonlari haqidagi tushunchalarini yaxshilashga yordam berish uchun ishlab chiqilgan dinamik tizim modellari hozirgi kunda davlat va xususiy sektorda siyosatni tahlil qilish va loyihalash uchun keng foydalanilmoqda [3]

Innovatsiyalar sohasida boshqaruv samaradorligi intellektual mulk ilmiy va bilimga bog'liq. Infratuzilma, shu jumladan universitet infratuzilmasi, ilmiy-tadqiqot institutlarida, universitetlarda yuzaga keladigan huquqiy va iqtisodiy munosabatlardan, patent siyosati va mahsulot muhofazasini shakllantirish tadqiqot va ijodiy ishlar, tashkilotlar ichidagi intellektual mulkdir [4].

Taklif etilayotgan yondashuvning sezilarli farqi nafaqat foyda olishga qaratilgan, balki, innovatsion faoliyat uchun doimiy yoki o'sib borayotgan salohiyatni ta'minlash, klaster korxonalari qiymatida bozor ulushini oshirish (aksiyadorlar uchun qiymat yaratish), innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish, mavjud mahsulotlar sifatini yaxshilash, bozorlarga chiqish yoki yangilarini yaratish uchun yangi kapitalni jalb qilish, ko'proq ish joylari imkoniyatlari kabi kompaniyaning qiymatini oshirish ko'rsatkichlari dunyodagi eng mashhur reytinglarga kiritilgan. [6].

Agrosanoatni klasterli optimallashtirishning xorij modellari va ularni moslashtirish sharoitlari to'g'risida o'zbek olimlari tomonidan bir qancha kitoblar, ilmiy maqollar va ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonini ekonometrik modellashtirish zaruriyatining asosiy jihatlari Jo'rayev F.D., Aralov G.M. (2023) [7,9,10].

Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni qisqa muddatli prognozlashtirishni bo'yicha keng ko'lamlil ilmiy nazariyalarini ilgari surilgan Jo'rayev F.D. (2021) [11,12].

Xizmat ko'rsatish sohasining har bir sohasining rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish, ularning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni tanlash va modellashtirish ketma-ketligi ushbu maqolada simulyatsiya sxemalari orqali tasvirlangan. Qashqadaryo viloyati aholisiga ko'rsatilayotgan xizmat ko'rsatish sohasi misolida multifaktorial empirik modellar qurilib, ular orqali prognozlar berildi va olingan natijalar asosida taklif va tavsiyalar berildi. Rakhimov A.N., Makhmatkulov G.K., Rakhimov A.M. (2021) [16,17].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Innovasiion barqarorlikni tashkil qilish uchun, iqtisodiy diversifikasiyaga e'tiboni ko'proq qaratish-mintaqada iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasida diversifikasiyaning ta'minlanishi, ulardan foydalanish samaradorligini oshirish. Mavhum fikrlash, qiyosiy tahlil, guruhlash, tadqiqotda kuzatish, induksiya va boshqa usullardan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.**

2-jadval ko'rib turganimizdek, *tizimli yondashuvda* innovasion tizim bir necha elementlardan tashkil topgan murakkab tizim bo'lib, bu elementlar o'zaro bog'langan va bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. Bu elementlarga ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim muassasalari, davlat idoralari, sanoat korxonalar, moliyaviy institutlar va boshqa tashkilotlar kiradi. Innovasion tizimning muvaffaqiyati barcha ishtirokchilar o'rtasidagi samarali hamkorlikka bog'liqdir.

2-jadval

Innovasion tizimning asosiy xususiyatlari

Tizimli yondashuv	Bilim va texnologiyalarni yaratish, tarqatish
Innovatsiyalarni joriy qilish	Innovatsion faoliyat sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar
Innovasion infratuzulma	Innovasion siyosat va huquqiy muhit

*Bilim va texnologiyalarni yaratish va tarqatish*, innovasion tizimning markazida yangi bilim va texnologiyalarni yaratish, ularni tarqatish va amaliyotga tatbiq qilish jarayoni turadi. Bu jarayon ilmiy izlanishlar, texnologik tajribalar va sinovlar orqali amalga oshiriladi. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari innovasion tizimning asosiy elementlaridan biridir.

*Innovatsiyalarni joriy qilish* innovasion tizimning asosiy vazifasi yangi bilim va texnologiyalarni real iqtisodiyotda amaliyotga tatbiq qilishdir. Bu jarayon texnologik yangiliklarni ishlab chiqarishga joriy qilish, yangi mahsulotlar yaratish va bozorga chiqarish orqali amalga oshiriladi. Innovasion jarayonlar iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

*Sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar* innovasion tizimda turli tashkilotlar, jumladan, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari, korxonalar, davlat idoralari va jamoat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro ta'sir muhim ahamiyatga ega. Bu sub'ektlar o'rtasidagi aloqalar bilim almashinuvi, texnologik kooperasiya, va kadrlar tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

*Innovasion infratuzilma* - innovasion tizimning muvaffaqiyati zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Innovasion infratuzilma texnoparklar, biznes-inkubatorlar, moliyaviy institutlar va boshqa qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlarni o'z ichiga oladi. innovasion infratuzilma yangi texnologiyalarni yaratish va ularni bozorga chiqarish jarayonlarini tezlashtiradi.

**XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, hududlar barqarorligining muhim yelementlaridan biri yuqorida izohlaganimizdek, Innovatsiyaning rivojlanish darajasi hisoblanadi. Rasmdan



ko'rib turganimizdek, Innovasion tizim — bu davlat idoralari, tadbirkorlik sub'ektlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari, ta'lim tizimi va jamoat tashkilotlaridan iborat tarmoq bo'lib, u Innovatsiyalarni yaratish, rivojlantirish va joriy qilishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradi. Innovasion tizimning asosiy vazifasi yangi texnologiyalar va bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirish, ya'ni ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq qilishdan iborat.

Bu esa o'z navbatida O'zbekistonda mavjud ishlab chiqarish korxonalarining kadrlarga bo'lga talabi o'sishiga va kerakli mutaxassis yetishtirishda, innovatsiya rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Shu bilan birga ishlab chiqaruvchi korxonalar va institutlar, ilm-fan ravnaqiga yangicha yondashuvi bosqichiga olib chiqadi. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti rivojlanishida investitsiyalar darjasi va ishchi kuchi malakasi muhim sanaladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning sanoat sohasini kengaytirish, hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qayta ishlash sanoatini rivojlantirish zarur. Shu jarayonlarda tayyor mahsulotga aylanganuncha ilmiy iznanuvchilar, yetishtirib beruvchilar, oraliq ishlab chiqaruvchilar, yetkazib beruvchilar va tayyor masulotga aylantiruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar. Mazkur tayyorlangan mahsulotning xar bir sohada qanchadan qancha ishchi kuchini taqsimotni ta'minlab beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-yanvardagi "2020 — 2022-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4565-son qarori// <https://lex.uz/docs/5188512>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni.
3. Кузнецова Н.В, Н.А. "Кластерезация экономики зарубежный опыт развития и перспективы России" // Экономика науки 2016
4. Титова, М. Н. Система оценки результативности и эффективности различных типов инноваций в рамках научно-производственного кластера /М.Н. Титова, Е. М. Ильинская.О. В. Кириллова // Научный журнал. Известия ГУАП. – 2013. - №3. – с 47-57.
5. Kurbanov, A. B. (2020). The role of small business in innovation. Economics, 2(02).
6. Meadows D., Meadows D., Randers J. The limits to growth: the 20-year update. - Chelsea Green Pub., 2004. - 338 p.
7. Султонов, С. (2024). Aholi daromadlari tabaqalashuvini kamaytirish borasidagi islohatlarni takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 2(4), 526-532.
8. Жўраев Ф.Д. (2021). Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni qisqa muddatli prognozlashtirish. // Innovatsion texnologiyalar, (2 (42)), 92-95.



9. Rakhimov A.N. & Jo'raev F.D. (2022). A Systematic Approach To The Methodology Of Agricultural Development And The Strategy Of Econometric Modeling. *resmilitaris*, 12(4), 2164-2174.

10. Juraev F.D.S. (2021). Problems Of Informatization Of Management Of Agricultural Industry And Modeling Of Agriconomic System In A Market Economy. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02), 49-54.

11. Mukhitdinov K.S. & Juraev F.D. Methods of Macroeconomic Modeling. *International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD)*, e-ISSN, 2456-6470.

12. Rakhimov A.N., Makhmatkulov G.K. & Rakhimov A.M. (2021). Construction of econometric models of development of services for the population in the region and forecasting them. *The American Journal of Applied sciences*, 3(02),

13. Raximov, A. N. (2023). Dehqon xo'jaliklari faoliyatining istiqbolli rivojlantirishga tasir etuvchi omillar. *Экономика и социум*, (3-2 (106)), 255-262.-48.

14. Jo'rayev, F. D. S., & Normurolovich, S. S. (2024). Agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy qilish, mahalliy mahsulotlarning raqobatdoshligini oshirish. *Journal of innovations in scientific and educational research*, 7(11), 158-163.

15. Mukhitdinov, K. S., & Rakhimov, A. N. (2020). Empirical models which were built for each sector of the service sector to the population of the region. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 10(12), 72-85.

16. Maxmatqulov, G. X. (2023). Savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishning zamonaviy uslubiy yondoshuvlari. *Innovative Development in Educational Activities*, 2 (9), 378-386.

17. Rahimov, A. (2023). Mehmonxona va umumiy ovqatlanish korxonalarini faoliyatini ekonometrik modellashtirishda zamonaviy uslubiy yondashuvlar. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 24(6), 245-250.